ADABIYOTSHUNOSLIK

UO‘K: 821 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a73**

XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA ZULLISONAYNLIK AN’ANASI TAKOMILI (NODIM, XILVATIY, XAYRATIYLAR IJODI MISOLIDA)

THE TRADITION OF ZULLISANAYNISM AT THE END OF HE 19th CENTURY AND THE BEGINNING OF THE 20th CENTURY (IN THE EXAMPLE OF WORKS OF NODIM, KHILVATI, KHAYRATI)

В КОНЦЕ 19- НАЧАЛЕ 20 ВЕКА ТРАДИЦИЯ ЗУЛЛИСОНАЙНИЗМА (НА ПРИМЕРЕ РАБОТ НАДИМ, ХИЛВАТИ, ХАЙРАТИЙ)

Oxunjonova Faxriniso Arabboy qizi[1]

[1]**Oxunjonova Faxriniso Arabboy qizi** – Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya

XIX asr oxirida zullisonaynlik an’anasi yangi bosqichga ko‘tarildi. Xuddi shu davr adabiyotidagi o‘zgarishlar, tom ma’noda yangilanishlar davri bo‘ldi. Chunki bu paytga kelib ijtimoiy hayotda jadidchilik juda keng va faol harakat sifatida namoyon bo‘lgan edi. Jamiyatdagi o‘zgarish bevosita adabiyotga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Bu maqolamizda shu evrilishlarning yangi qiyofasini – zullisonaynlik an’anasining o‘zgacha talqinini yoritishiga harakat qildik.

Аннотация

В конце 19- начале 20 века традиция зуллисонайнизма вышла на новый уровень. Этот же период был буквально периодом перемен в литературе. Потому что к этому времени джадидизм появился как очень широкое и активное движение в общественной жизни. Это имело непосредственное влияние на литературу. В этой статье мы попытались пролить свет на новый образ этой эволюции и новую интерпретацию зуллисонайнской традиции.

Abstract

At the end of the 19th century and at the beginning of the 20th century, the tradition of Zullisonayn reached a new level. In the same period, there was a period of changes in literature, literally, renewal. Because by this time, jadidism had appeared as a very broad and active movement in social life. This had a direct impact on literature. In our article, we tried to shed light on the new image of this evolution ad the new interpretation of the Zullisonayn tradition.

Kalit so‘zlar: *Zullisonaynlik, she’riyat, g‘azal, jadidchilik, “Tazkirayi Qayumiy”, Hilvatiy, devon, fors, Avliyoota.*

Ключевые слова: *Зуллисайнизм, поезия, газель, джадидизм, “Тазкирайи Каюми ” Хилвати, деван, персидиский язык, Авлиё ата.*

Keys words: *Zullisaynism, poerty, ghazal, Jadidism, Tazkirayi Qayumi, Hilvati, Devan, Persian, Avliyoota.*

KIRISH

Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, albatta, o‘sha xalq adabiyotiga ta’sir etmay qolmaydi. Zero, adabiyot hayot in’ikosidir. Xuddi shunday vaziyat X-XII asrlarda milliy adabiyotimizda ham yaqqol namoyon bo‘ldi. Aynan shu davrdan boshlab tojik xalqi bilan yaqinlik, savdo-sotiq aloqalarining rivoji, san’atdagi oshnolik ikki xalq adabiyotiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Har ikki xalq vakillari o‘zga tilning imkoniyatidan bahramand bo‘la olishdi. XII –XIII asrga kelib bu bahramandlik adabiy an’anaga aylanib, boshqa tildan faqat hayotiy zarurat uchun emas, adabiyotda nozik ta’blilik, o‘sha til foydalaridan naf topmoq uchun qo‘llanila boshlandi. Dastlab, asarlarning ta’sirchanligini oshirish maqsadida o‘zga tilning so‘zlaridan foydalanish “shir-u shakar” va “mulamma” san’atlarini vujudga keltirgan bo‘lsa, keyinchalik, bu hodisa “zullisonaynlik” deb atalgan adabiyot an’anasini dunyoga kelishiga turtki bo‘ldi. Zullisonaynlik haqida so‘zlaganda, avvalo, bu istilohning lug‘atlardagi mazmuniga e’tiborimizni qaratsak, “Navoiy asarlari lug‘ati” da bu atamaga quyidagicha ta’rif beriladi: “Zullisonaynlik”-arabcha, “ikki tillilik, ikki tilni biluvchi, ikki til egasi” demakdir. Zamonaviy adabiyotlarda ham bu atama ikki tilda ijod qilishlikni anglatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

“Namangan diyorining ma’naviy qiyofasini Mahdumi A’zam Kosoniy, Boborahim Mashrab, Is’hoqxon Ibrat, Muhammad Sharif So‘fizoda, Usmon Nosir kabi buyuk zotlar belgilaydi”-deb bejiz aytmagan muhtaram birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov. Darhaqiqat, Qo‘qon adabiy muhitida ham

namanganlik shoirlarning o‘rni beqiyos. “Majmuai shuaro”da 63 ta shoirdan 21 tasi namanganlik bo‘lsa, “Tazkirayi Qayyumiy”da esa 40 ga yaqin ijodkorning namanganlik ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Namanganlik shoirlar o‘z davrining o‘tkir qalam sohiblari edi. Namanganda yashab ijod etgan Fazliy, Ibrat, Xilvatiy, Nodim, So‘fizoda, Ramziy, Devona, Faqiriy, Zululiy, Noqis kabi shoirlar o‘zbek adabiyoti tarixida ham, tojik adabiyoti tarixida ham juda katta o‘rin tutadi.

Nodim Namongoniy haqida “Tazkirayi Qayyumiy” asaridagi fikrlar juda ahamiyatlidir: “Namogoniy Muqimiy bilan zamondosh va do‘st edi. Nomi Eshonjondur. Olim, fozil, mo‘tabar shoirlardan hisoblanadur. “Tuhfat-ul obidiyn” nomli bayozda bu kishini ko‘p she’rini uchratish mumkin… ayrim devoniga ko‘zimiz tushmasa-da, kuchligina shoir ekani ma’lumdir…1930-yilda hayot ekani ma’lum”. Ammo boshqa bir manbada 1910-yil 26-iyunda Namanganda vafot etadi deb beriladi Keyingi manbalarda ham juda kuchli shoir ekanligi haqida ma’lumotlar bor. Nodim Muqimiy va Xilvatiylarning yaqin do‘sti edi. Zavqiy, Furqat kabi shoirlar davrasidan yaqindan oshno bo‘ldi. Muqimiy har doim qovun pishig‘ida Namanganga kelib, Nodimning uyida qolar edi. Bu haqida Muqimiy shunday yozadi:

Qolgan ekanmiz yomon o‘rganishib,
Sizdan ajrab bizda kamdur xo‘rd-u xob.

Nodimning qo‘lyozma bayozi farzandi Musallamxon qo‘lida saqlanar edi. Bu bayozda o‘zbekcha va 15ga yaqin forscha she’rlardan tashkil topgan. Bugungi kunda esa Nodim Namangoniyning qo‘lyozma devoni Sharqshunoslik Instituti qo‘lyozmalar fondida № 4179 raqami ostida saqlanadi.

Shu davrning yana bir yetuk namoyondasi Xilvatiy Azizxo‘ja madrasasida mudarris va bosh mudarris bo‘lgan. O‘zbek va fors tillarida ijod qilgan. She’rlarida Bedil, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy an’analarini davom ettirgan. Shoirdan bizgacha ikki devon yetib kelgan bo‘lib, birinchi devoniga jami- 770 bayt forscha she’rlar, 6886 bayt o‘zbek tilidagi she’rlar kiritilgan. Ikkinchi devonga esa 4540 bayt fors va o‘zbek tilidagi she’rlar jamlangan. Xilvatiy haqida ustoz Po‘lotjon Qayumiy shunday degan: “Bu shoir asli Andijonlik, Namanganda nash’u namo etmish…” …va mullo obidning ustodi. Mavlaviyning arabchadan o‘zbek tiliga nazm ila ko‘chirgani shuhratiga sabab bo‘ldi”. Xilvatiyning uchta she’riy risolasi mavjud bo‘lib, ulardan dastlabkisi “Mavludi sharif”-turk tilida, aruz vaznida bitilgan. Bu asar payg‘ambarimiz mavludlari bilan bog‘liq birinchi she’riy doston. Ikkinchisi “Charog‘i maktab” deb nomlanib, o‘zi bu haqida: “…bu risola aqoidi manzumadur. Muallimlarga lozimdurki, atfollarda o‘qub yod olaydurlar” deb, yozib qo‘ygan. Uchinchi risolasi- “Sayr-ul jibol”dir. Bunda tog‘ sayri taassurotlari haqida so‘z boradi. Xilvatiy yuqoridagi risolasi Nodim Namongoniy iltimosi bilan yozilganligi, 16 parchadan iborat ekanligi haqida o‘z devonida yozib o‘tadi.

Hayratiy Qo‘qon adabiy muhitining yirik vakillaridan biri bo‘lib, u haqida “Tazkirayi Qayyumiy” da shoir haqida hech qanday ma’lumot uchratmadik. Asarda ikkita Hayratiy taxallusli ijodkorlar bo‘lib, ularning ikkisi ham namanganlik emas. Hayratiyning asl ismi- Umrzoq bo‘lib, otasining ismi Xolboy. Shoir XIX asrning ikkinchi yarmida To‘raqo‘rg‘on tumanining Yortepa qishlog‘ida dunyoga keldi. Manbalarda u haqida “zarofatgo‘y qiziqchi, hozirjavob, dilkash inson” deb ta’riflanadi. Hayratiy- ma’rifatparvar shoir sifatida mumtoz she’riyatimizning barcha janrlarida ijod qiladi. Fors-tojik, ozarbayjon shoiralaridan fayz topadi. Hilvatiyning tojikcha g‘azallari topilmagan bo‘lsa ham, uning tojik tilida asar yozganligi haqida Dadamirza Orifboyev ma’lumot berib o‘tgan. Hayratiy haqida Dadamirza Orifboyev o‘zining ilmiy ishlarida bayon etib quyidagilarni yozib qoldiradi: “xattotlik san’atining ko‘plab sirlarini o‘rgandi…madrasani tugatgach, To‘raqo‘rg‘on mingboshisiga mirza bo‘lib ishladi, …qishloq dehqonlariga ariza, maktub, merosnoma, kitob ko‘chirib berish evaziga faqirona hayot kechirdi”

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nodim Navoiy, Fuzuliy, Nodira ijodini puxta o‘rganib demokratik ruhdagi g‘azallari bilan ularning ezgu maqsadini davom ettirdi. Muqimiy, Zavqiy, Furqat bilan o‘zaro o‘xshatmalar yozishdi:

Furqat:

Ey dar bazm- la’lat ishqi dar bob nest,
Shisharo ashki nadomat boda chuz hubob nest

Nodim:

Dil ba dast or, ki chun g‘ayri tu dildore nest
Dardmandori turo g‘ayri tu g‘amhore nest.

Nodimning o‘zbek hatto tojik tilidagi g‘azallarida ham jamiyatdagi adolatsizliklar, tengsizliklar juda ta’sirli qilib ochib berilgan.

Sad chafo az do‘st biny bo hamo‘shy shod bosh
Az shikoyat lab buband, az nola beovoz bosh.

Ya’ni, “do‘stdan yuz jafo soladi xursand boshga, ammo shikoyat qilishga labim bog‘liq, ovozsiz nola qilaman”. Mazkur g‘azalida yurtdagi notinchliklar “o‘zimiznikilar” sababli ekaniga ishora qilinadi. O‘zbek tilidagi g‘azallarida Nodim zamonning eng dolzarb muammolarini qalamga oldi. Xonliklarning o‘zaro boshboshdoqliklar, urushlarni qoralagan, xonlarning asl maqsadini ochiq –oydin aytishdan qo‘rqmagan:

Shahlarki jahonni aylagay tang,
Bir-biriga qilib sitez ila jang…
Maqsudi alarni siymu zardur.

Nodim Namangoniy o‘z asarlarida ijtimoiy muammolar bilan hamohang tarzda, muhabbat haqida o‘ziga xos badiiy mahorat bilan, lirik qahramonning ichki kechinmalarini, ma’shuqaning betakror husnini nafis tasvirlaydi:

Qadding uzra chashmi mastingdurmu yo nargis magar
Bu malohat birla sarvi ravon ustidadur.

Muhabbat bobida Navoiy, Jomiy, Fuzuliydan qolishmasligini forsiy tilda yozilgan g‘azallarida ham ko‘rish mumkin:

Dedikim:- ishq bozorida savdo jondin o‘tmoqlik
Dedim:- sadqang bo‘lay ey yor bu ish menga osondur.

Nodim Namangoniy sayohatnoma janriga ham o‘z hissasini qo‘shdi. Muqimiy singari juda ta’sirli qilib sarguzashtnomalar yozdi. Sarguzashtnomalarida borgan joyidagi kamchiliklar, ijtimoiy muammolarga alohida e’tibor berib o‘tgan. Chunonchi, “Bayoni sayohati Nodim”, “Dar safari hazrati Shohimardon Nodim”, “Bayoni voqeoti safari Buxoro va Samarqand” kabilar shular jumlasidandur. Sayohatnomalarida faqatgina tabiat, odamlar tasviri bilan cheklanib qolmagan, ilg‘or ziyolilar tomonidan ochilgan gimnaziya haqida shunday yozadi:

Bo‘yla hikmatxona gimnaziyani ko‘rgach dedim,
-Ofarin, ming ofarin, bu ilm bir asrordur.

Nodim Namongoniyning she’rlari o‘ynoqi, ravon, hayotbaxsh. Ular o‘quvchiga ko‘tarinkilik baxsh etadi. Ajoyib badiiy o‘xshatish, istioralar juda ko‘p.

Qo‘qon adabiy muhitining yana bir yirik vakili – Xilvatiy taxallusida ijod qilgan shoir. Ijodkor ham, turkiy, ham forsiy, ham arabiyda erkin qalam tebrata olgan. El orasida uning risolalari juda mashhur edi. Xilvatiyning yuqorida zikr etilgan risolasi bilan birga “Qasidai ilm” nomli qasidasi ham chop etilgan. Bu qasida 95 bayt bo‘lib, fors tilida yozilgan. Qasidada ilm to‘lin oyga, quyoshga o‘xshatiladi:

Zihi shamsuz- zuho badrud- dujo ilm,
Charog‘i bazmgohi du saro ilm.
Mazmuni:
Qanday yaxshi, ilm choshgoh quyoshi va to‘lin oydir,
Ikki olam bazmgohining ikki sara salomidir.

Bundan tashqari fors tilida bitilgan to‘rtta qasidasi bor. Bularning barchasi 200 misradan ortiq va barchasi turli mavzularda yoritilgan. Xilvatiy shoir sifatida jadidlarning erkin qarashlarini, mustaqil fikrlarini hamisha qo‘llab-quvvatlagan. Shoir ko‘p qirrali ijodkor bo‘lib, Mavlaviy asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Xilvatiy XIX asrning eng yetuk shoir, bilimdon shayx, mohir tarjimon sifatida adabiyot olamida abadiy qoldi.

Xilvatiy taxallusli shoir lirikasining mavzu doirasi keng. Ularda sof insoniy sevgi, vafodorlik, inson va tabiatga mehr, o‘z davridan norozilik motivlari ancha kuchli. Ba’zi she’rlarida shoir ayrim amaldorlar- yulg‘ich savdogar, ochko‘z sudxo‘rlarni hajv qiladi. Uning turkiy g‘azallari ham mazmun mundarijasi juda boy:…Visoling ila shod erdi mahzun dilim, ey mahvash,

Husning chirog‘iga parvona tong otquncha.

Ushbu radifli g‘azali XIX asrda yashagan deyarli barcha ijodkorlarda uchragan. G‘azal 7 baytdan iborat bo‘lib, unda yor hajrida kuyayotgan oshiqning ichki kechinmalari bayon etilgan.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Bejizga tong otguncha degani yo‘q. “Tong otquncha” iborasining qo‘llanishidan ko‘rinib turibdiki, bu oddiygina qizga emas, Ilohiy muhabbatga oshnolikni namoyon etmoqda. Ma’lumki, tasavvufda oshiq tuni bilan Allohga ibodat qilib chiqadi, uning vasliga erishmoqni so‘rab iltijo qiladi. Bunday fikrga kelishimizning yana bir isboti sifatida quyidagi misralarni keltirib o‘tamiz:

Ishq savdosida doim maskanim mayxonalar
Bir puchak pulga sotarman masjidu butxonalar…

Baytda sof ilohiy ishq “uchqunlari”ni sezish qiyin emas. Mayxona mumtoz adabiyotimizda oshiqning ishq to‘la qalbi. Xuddi Mashrabdek Alloh jamoli uchun barcha ibodat joylarini “sotmoqchi”.

Uning she’rlarida zamondoshlari Furqat, Muqimiy kabi taraqqiyparvar shoirlardanligi uning devonida saqlanayotgan g‘azal, muxammas, ruboiylarida o‘z ifodasini topgan. Hayratiy uchun birgina najot yo‘li ilm edi. Uning uchun xalq dardi bilan yashash asosiy maqsad deb bildi:

Yo, Rab, ahli dard ila hamroz qil,
Munisu hamsuhbatu damsoz qil,
Qilma har nojins ila hamdam mani
Ulfati ahli salohi soz qil.

Hayrat To‘raqo‘rg‘oniyning muxammaslari ham adabiyotimizda alohida o‘ringa ega. Shoirning Nodim Namongoniy, Muqimiy, Nisbatiy g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari el orasida juda mashhur. Hayratiy To‘raqo‘rg‘oniy hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar hali hamon adabiyot muxlislariga kamlik qiladi.

XULOSA

Bundan xulosa shuki, O‘zbekiston tarixi va adabiyotida muhim bosqich bo‘lgan XIX asr oxiri-XX asr boshlarida yashagan, ijod etgan har bir shaxsning ijodiy merosi alohida o‘rganilishi lozim. Boisi ikki tilda bitilgan she’rlarning badiiy saviyasi, g‘oyasi, ularda ilgari surilgan maqsad – vazifalar bugungi kelajak avlodning o‘zbek adabiyotini chuqur tushunishga, tahlil qilishga chorlaydi. Zullisonaynlik an’anasi nafaqat davr koloritini, balki vaqt koloritini ham atroflicha, tahlil qiladigan badiiy an’ana hisoblanadi. Mazkur badiiy jarayonning takomilini sof holda, kelajak avlodga yetkazish darkor.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Domulla Qayumov Po‘lotjon. “Tazkirayi Qayyumiy”/mas’ul muharrir A. Qayumov/. – Toshkent: O‘zRFA, 1999. (Pulatdjon domullo Kayumii “Tazkirai Kayumii”/ responsible editor A. Kayumov/.- Tashkent:UzRFA)

2. Abdullayev V., O‘zbek adabiyoti tarixi 2-kitob (XVII asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha). -T.: «O‘qituvchi», 1967. (Abdullayev V., History of Uzbek literature book №2 (From the 17th century to the second half of the 19th century) – T.: “O‘qituvchi”), 1967

3. Azamat Z. O‘zbek davlatchiligi tarixi.- T., «Sharq», 2000. (Azamat Z. History of Uzbek statehood-T.,)

4. Ingeborg B . XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar.-T., “Ma’naviyat”,2001 (Ingelborg B. Sketches of 20th century Uzbek literature- T., Ma’naviyat)

5. Bobobekov H. Qo‘qon tarixi.-T., “Fan”.1996 (Bobobekov H. Kogan history – T., “Fan”)

6. Xolliyev G. G‘ulomov. X. O‘zbekiston tarixi.-T., «Universitet». 1997. (Kholiyev G. G‘ulomova KH. History of Uzbekistan –T., “University” 1997)

7. Hakimxon, Xotiralar, -T.: «Fan» nashriyoti, 1966. [39] (Khakimxon, Memories- T.: “Fan” publisher, 1966)

8. Hojiahmedov A., «Mumtoz badiiyat lug‘ati»,-T.: «Yangi asr avlodi», 2008. (Khojiahmedov A., Dictionary of classic art, -T.: “Yangi asr avlodi”2008)

9. Is’hoqxon To‘ra Ibrat. Farg‘ona tarixi. T., «Ma’naviyat», 2005 (Is’khakhan Tura Ibrat “History of Ferghana” T., “Ma’anaviyat” 2005)

10.Hasanboy G‘oyib. Diydor sog‘inchi. – Dushanbe “Promekspo”, 2017 (Khasanboy Gayib. “ Dear Miss”,- Promekspo, 2017)

11. Karimov I.A. «Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz».– Toshkent. “O‘zbekiston”, 1999. (Karimov I.A. “ We create our future with our own hands”.- Tashkent Uzbekistan, 1999.)